

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI

1. O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti
2. Toshkent davlat himoyuslik universiteti

O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lifi, fan va innovatsiyalar vazirligiga
2024-yil 12-iyul kuni qo'shilgan va amalga kiritilgan

70230101 – Lingvistika magistratura mutaxassisligining


MALAKA TALABI

O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lifi, fan va innovatsiyalar vazirligiga

Maktar Malaka qablibi "Oliy ta'llimning ro'oli ja'ber qilishi, o'sadiq qoidalari", "Oliy ta'llimning dengiz ta'limi qandari", Oliy ta'llim yil'nalishlari va mutaxassisliklar klassifikatsiya va zekrisi Respublikani Milliy o'sariyot, moliya doiralarini (ramzasi), kuchli o'sashishlar va hadisasi, bayrotnommlari" taklifligi turmofiq iqtisod chiqqigasini tuzuvchi o'saychi quruhay hujjati haqida ekan.

O'zbekiston Respublikasi vazirligida Moliya doirasi
haqida O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lifi, fan
va innovatsiyalar vazirligiga

Toshkent-2024



ISHLAB CHIQILGAN VA KIRITILGAN:

1. O‘zbekiston davlat jahon tillari universiteti.
2. Toshkent davlat sharqshunoslik universtiteti.

TASDIQLANGAN VA AMALGA KIRITILGAN:

O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligining 2024-yil “01” 08 dagi 277 – sonli buyrug‘i bilan.

JORIY ETILGAN:

O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi.

Mazkur Malaka talablari “Oliy ta’limning davlat ta’lim standarti. Asosiy qoidalar”, “Oliy ta’limning davlat ta’lim standarti. Oliy ta’lim yo‘nalishlari va mutaxassisliklari klassifikatori”, O‘zbekiston Respublikasi Milliy va tarmoq malaka doiralari (ramkasi), kasbiy standartlar va kadrlar buyurtmachilari takliflariga muvofiq ishlab chiqilgan va rasmiy me’yoriy-uslubiy hujjat hisoblanadi.

O‘zbekiston Respublikasi hududida Malaka talablarini rasmiy chop etish huquqi O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligiga tegishlidir.

MUNDARIJA

T/r	bet
1. Umumiy tavsifi.....	
1.1. Qo'llanish sohasi.....	4
1.1.1. Malaka talabining qo'llanilishi.....	4
1.1.2. Malaka talabining asosiy foydalanuvchilar.....	4
1.2. Kasbiy faoliyatlarning tavsifi	4
1.2.1. Kasbiy faoliyatning sohalari	4
1.2.2. Kasbiy faoliyatarning obyektlari.....	4
1.2.3. Kasbiy faoliyatlarning turlari.....	5
1.2.4. Kasbiy vazifalar.....	5
2. Kasbiy kompetensiyalarga qo'yiladigan talablar.....	6
3. Amaliyotlarga qo'yiladigan talablar.....	7
4. Fanlar katalogining tuzilishi.....	7
Bibliografik ma'lumotlar.....	11
Kelishuv varag'i	12

1.Umumiy tavsifi

70230101 - Lingvistika magistratura mutaxassisligi bo'yicha magistrlar tayyorlash kunduzgi ta'lim shaklida amalga oshiriladi. Magistratura dasturining me'yoriy muddati 2 yil.

1.1. Qo'llanish sohasi

1.1.1. Malaka talabining qo'llanilishi.

Malaka talabi 70230101 - Lingvistika magistratura mutaxassisligi bo'yicha magistrlar tayyorlovchi barcha oliy ta'lim muassasalari uchun talablar majmuini ifodalaydi.

1.1.2. Malaka talabining asosiy foydalanuvchilarini:

Mazkur magistratura mutaxassisligi bo'yicha malaka talablari, o'quv reja va o'quv dasturlarini ishlab chiqish va yangilash, ular asosida o'quv jarayonini samarali amalga oshirish uchun mas'ul hamda o'z vakolat doirasida bitiruvchilarning tayyorgarlik darajasiga javob beradigan oliy ta'lim muassasalarining boshqaruv xodimlari (rektor, prorektorlar, o'quv bo'limi boshlig'i, dekanlar va kafedra mudirlari) va professor-o'qituvchilar;

magistratura mutaxassisligining o'quv rejasi va o'quv dasturlarini o'zlashtiruvchi oliy ta'lim muassasasining talabalari;

magistratura bitiruvchilarining tayyorgarlik darajasini baholashni amalga oshiruvchi Davlat attestatsiya komissiyalari;

ta'limni boshqarish bo'yicha vakolatli davlat organlari;

oliy ta'lim muassasalarini moliyalashtirishni ta'minlovchi organlar;

oliy ta'lim tizimini akkreditatsiya va sifatini nazorat qiluvchi vakolatli davlat organlari;

kadrlar buyurtmachilar, ish beruvchi tashkilot va korxonalar;

oliy ta'lim muassasalariga o'qishga kirayotgan bakalavriat bitiruvchilar va boshqa manfaatdor shaxslar.

1.2. Kasbiy faoliyatlarning tavsifi.

1.2.1. Kasbiy faoliyatining sohalari.

Uzluksiz ta'limning davlat va nodavlat muassasalarida xorijiy tillarni o'qitish, O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi va tarmoq ilmiy tadqiqot institutlarida ilmiy tadqiqot faoliyatini yuritish, davlat boshqaruvi organlari, mahalliy va xalqaro tashkilotlarda tarjimonlik, ommaviy axborot vositalari va nashriyotlarda faoliyat olib borish bilan bog'liq kasbiy sohalar majmuasini qamrab oladi.

1.2.2. Kasbiy faoliyatlarning obyektlari:

Davlat boshqaruvi organlari, O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi va tarmoq ilmiy tadqiqot institutlarida ilmiy xodim, oliy ta'lim, malaka oshirish va qayta tayyorlash, professional ta'lim muassasalarida pedagog, shuningdek, ommaviy axborot vositalari va nashriyotlar, davlat va nodavlat tashkilotlar, korxona va muassasalar, kompaniyalar (firmalar)da mutaxassis.

1.2.3. Kasbiy faoliyatlarning turlari:

- *ilmiy tadqiqot faoliyati;*
- *pedagogik faoliyat;*

- *tarjima va tahrir faoliyati;*
- *tashkiliy-boshqaruv faoliyati;*
- *konsalting xizmati faoliyati.*

1.2.4. Kasbiy vazifaları.

70230101-Lingvistika mutaxassisligi bo'yicha Milliy malaka ramkasining 7-malaka darajasi hamda magistr kasbiy faoliyatlarining sohalari, obyektlari va turlariga muvofiq magistratura bitiruvchisi quyidagi kasbiy vazifalarni bajarishga qodir bo'lishi lozim:

Ilmiy tadqiqot faoliyatida:

ilmiy, amaliy tadqiqotlarni o'tkazish, tajriba natijalarini tahlil qilish va ular asosida ilmiy asoslangan xulosalar chiqarish, ilmiy yangiliklarni kashf etish;

mustaqil ravishda bilimini takomillashtirish, tanqidiy fikrlash va tahlil ko'nikmalariga ega bo'lish, nazariy va amaliy bilim, malaka va ko'nikmalarini o'z ilmiy tadqiqot faoliyatda qo'llash;

ilmiy maqolalar, ma'ruzalar, risola, o'quv adabiyotlar tayyorlash va tahrir qilish, o'tkazilayotgan tadqiqotlar mavzusi bo'yicha ilmiy sharhlarni ishlab chiqish, referatlar va bibliografiyalarni tuzish;

ilmiy adabiyotlar va internet tarmog'ida eng yangi ilmiy, nazariy va amaliy yutuqlar haqidagi ma'lumotlarni maqsadga yo'nalgan holda qidirish, topish va tahlil etish;

ilmiy tadqiqot olib borish metodlari va tahlillarni bilish, ularni ilmiy faoliyatda qo'llay olish;

ilmiy seminar, konferensiya va simpoziumlarni tashkil etish, o'tkazish hamda faol ishtirok etish;

mos mutaxassislik mavzusi bo'yicha ilmiy loyihalarni ishlab chiqish, echilayotgan ilmiy muammolar va topshiriqlarning konseptual va nazariy modellarini ishlab chiqish;

tadqiqot sifatini baholash ko'nikmalariga ega bo'lish, yangi axborotni o'rgangan axboroti bilan solishtira olish;

o'z tadqiqotining natijalarini aniq va ravon bayon eta olish, ularni pragmatik amaliyotda qo'llay olish.

Pedagogik faoliyatida:

o'quv fanlarini o'qitish metodikasini o'zlashtirish va amalda qo'llash;

elektron va distansion o'qitish metodlarini egallash va pedagogik faoliyatida qo'llash;

oliy va o'rta maxsus, professional ta'lim muassasalarida mutaxassislikka oid o'quv fanlari bo'yicha nazariy va amaliy mashg'ulotlarni o'tkazish;

zamonaviy axborot va pedagogik texnologiyalardan foydalanib noan'anaviy o'quv mashg'ulotlarini o'tkazish;

o'qitilayotgan fanlar bo'yicha darslarni o'tkazish uchun zarur bo'lgan o'quv-uslubiy hujjalarni tuzish, tayyorlash va rasmiylashtirish;

o'qitilayotgan fan bo'yicha o'quv mashg'ulotlarni o'tkazish uchun o'qitishning texnik vositalaridan foydalanish;

mustaqil ta'lim va ijodiy izlanish natijasida o'qitilayotgan fan hamda pedagogik faoliyat sohasidagi turli metodlar va usullar, vositalarni egallagan holda

o‘z-o‘zini muntazam takomillashtirib borish;

uzluksiz ta’lim tizimining DTS, malaka talablari va boshqa o‘quv-me’yoriy hujjatlarni ishlab chiqishda ishtirot etish;

o‘quv-uslubiy qo‘llanmalar ishlab chiqish, loyihalash, modellashtirish ko‘nikmalariga ega bo‘lish;

oliy ta’lim, qayta tayyorlash va malaka oshirish, professional ta’lim muassasalarida mutaxassisligi bo‘yicha pedagogik va o‘quv-uslubiy faoliyat yuritish;

o‘quv jarayonini va ilmiy faoliyatni tashkil qilish, zamonaviy axborot va pedagogik texnologiyalardan, o‘qitishning texnik vositalaridan foydalanib o‘quv mashg‘ulotlarini o‘tkazish;

elektron (e-learning), mobil (m-learning), masofaviy axborot texnologiya va o‘quv-metodik majmualarni mukammal o‘zlashtirish;

turli sohalardagi axborot kommunikativ faoliyatda bilim va malakalarni tizimlashtirish, integratsiyalashtirish ko‘nikmalariga ega bo‘lish, ulardan lingvistika, lingvodidaktika fanlari sohasidagi muammolarni echishda samarali foydalanish;

milliy va xalqaro ahamiyatga ega bo‘lgan ilmiy, ta’limga oid, ijodiy, reklama loyihibarini ishlab chiqish;

pedagogik va ilmiy mahorati hamda malakasini muntazam oshirib borish.

Tarjima va tahrir faoliyatida:

Chet tilidagi turli tipdagagi matnlarni tarjima va tahrir qila olish;

madaniyatlararo muloqotning turli jabhalarida muayyan tarjima shakllarini, strategiyalarini va usullarini qo‘llab tarjima qilish;

lisoniy, lingvomadaniy adekvatlikni va kommunikativ maqsadni inobatga olgan holda matnni tarjima qilish;

anjuman va seminarlardagi ilmiy materiallarni tahrir yoki tarjima qilish; reklama tashkilotlarida reklama matnlarini yaratish va tarjima qilish.

Tashkiliy-boshqaruv faoliyatida:

ta’lim jarayonini boshqarish, ishlab chiqarish jarayonlari va resurslarini rejalashtirish;

kasbiy sohada ijtimoiy va iqtisodiy vaziyatdan kelib chiqqan holda iqtisodiy samaradorlikni baholash va hisoblash usullarini, ta’lim menejmentini egallash;

o‘zining kasbiy faoliyatiga oid mehnat bozori va ish bilan ta’milshanish bo‘yicha ma’lumotga ega bo‘lish;

mehnat jamoasining umumiyligi maqsadlariga erishish, ijrochilarining faoliyatini monitoring qilish maqsadida individual va guruh faoliyatini vujudga keltirish;

auditoriya va pedagogik jamoani boshqarish hamda o‘quv jarayonini o‘rnatilgan tartibda tashkil qilish;

jamoa psixologiyasiga oid tizimli bilimlarni, tashkiliy ishlarda menejment asoslarini qo‘llashni bilish;

ekspert-tahliliy ishlarni amalga oshirish maqsadida, induktiv va deduktiv kuzatish, tahlil qilish, baholash va statistik tahlil qilish.

Konsalting xizmati faoliyatida:

chet tillarini o‘rganish va o‘qitish sohasida mavjud holatning analistik obzorini ishlab chiqish;

xorijiy manbalarni filologik jihatdan tadqiq etish bo'yicha ekspertiza guruhlarida ishtirok etish;

ixtisoslikka mos mavzular bo'yicha konsalting xizmatlarini ko'rsatish.

2. Kasbiy kompetensiyalariga qo'yiladigan talablar

o'rganilayotgan nazariy fanlarning umummetodologik tamoyillari, terminologik apparati, asosiy tushunchalari va yo'nalishlari, etakchi konsepsiyalari, ilmiy adabiyotlari va olimlari, lisoniy birliklarni tadqiq etishdagi yondashuvlarni bilishi va ularni o'z ilmiy tadqiqotida qo'llay olishi;

xorijiy tilda nazariy va lisoniy material bilan ishslash, muayyan nazariy masalalarga oid fikrlarni bayon etishi, ayni fikrlarga nisbatan tanqidiy munosabatini shakllantira olishi va ifodalashi;

ilmiy tadqiqot jarayonida dolzarb nazariy masalalarni aniqlay olishi va lisoniy birliklarini tahlil qilishda ularning echimini topa olish, egallagan yangi bilimlarni o'z ilmiy tadqiqot amaliyotida qo'llashi;

lisoniy birliklarni tahlil qilish lingvistik metodlarini (qiyosiy tahlil, diskursiv tahlil, kontekstual tahlil, komponent tahlil va xk) bilishi va ularni ilmiy tadqiqotda qo'llashni bilishi;

zamonaviy lingvistika yo'nalishlarining (matn lingvistikasi, kognitiv lingvistika, lingvomadaniyatshunoslik, lingvopragmatika) asosiy tushunchalari, terminologik apparati, asosiy tamoyillari va ularning xususiyatlari, turli nazariy qarashlar va etakchi konsepsiyalarni bilishi va ularni o'z ilmiy tadqiqotida qo'llay olishi;

lisoniy birliklarni tahlil qilishda kognitiv, kommunikativ, diskursiv, pragmatik metodlarini (konseptual tahlil, freym tahlil, kognitiv xarita tuzish, nutqiy aktlar tasnifi, diskursiv tahlil) bilishi va ularni amaliyotda qo'llash;

xorijiy tilda berilgan matnning kognitiv, lingvokulturologik va kommunikativ, pragmatik, stilistik jihatlarini tahlil qilishni bilishi, matnnning asosiy kategoriyalarni aniqlay olishi va ushbu kategoriyalarni ifoda etuvchi lisoniy birliklarni tahlil qilishni bilishi;

matnni tahlil qilish metodlarini (lingvistik sharhlash, superlinear tahlil metodi, semantik, stilistik, konseptual tahlil, inferensiya metodi, matn tahlilining statistik metodlari) bilishi va ularni matn tahlili jarayonida qo'llashni;

chet tilida xorijda va O'zbekistonda chop etilgan materiallarni qiyosiy tahlil qilish, chop etilgan ilmiy-nazariy va metodik manbalardan bibliografiya tuzishni bilish, ularni umumlashtirish, sistematizatsiya qilish va ilmiy tadqiqoti jarayonida qo'llay olish;

tili o'rganilayotgan mamlakatlar madaniyatiga xos bo'lgan ma'naviy va axloqiy, ijtimoiy xususiyatlarni farqlash, madaniyatlararo muloqot sohasi bo'yicha nazariy va empirik bilimlarni o'zlashtirish, o'zaro muloqotda bo'lgan madaniyatlarning asosiy konseptual va lisoniy aspektlarini bilish;

tadqiqot sifatini baholash ko'nikmalariga ega bo'lish; yangi axborotni o'rgangan axboroti bilan solishtira olish; o'z tadqiqotining natijalarini aniq va ravon bayon eta olish, ularni pragmatik amaliyotda qo'llay olish;

xorijiy tilda ilmiy va kasbiy faoliyatiga oid hujjatlar va ishlar mohiyatini tushunishi, o'z faoliyatida me'yoriy-huquqiy hujjatlardan foydalana olishi, o'zining kasbiy faoliyatida asoslangan mustaqil qarorlar qabul qila bilishi;

zamonaviy til o‘rganish va o‘rgatishning metodologik tamoyillari va turli nazariyalari, xorijiy tillarni o‘qitish jarayonini tashkil etish shakllarini, xorijiy tillarni o‘qitishda zamonaviy metodlarni qo‘llashni.

Kasbiy sohaning barcha turlarida chet tili **kommunikativ kompetensiyasiga** (lingvistik, ijtimoiy-lingvistik, diskursiv, ijtimoiy-madaniy, kognitiv) ega bo‘lib, magistrantlar chet tili kommunikativ kompetensiyasining quyidagi tarkibiy qismlarini o‘zlashtirishlari lozim:

Nutqiy kompetensiya:

Tinglab tushunish: muhokama va debatlardagi asosiy va boshqa ishtirokchilar o‘rtasidagi murakkab mavzudagi muloqot mazmunini tushunish; keng qamrovli, ayrim nostandard lisoniy vositalar ishlatalish hollarini ham o‘z ichiga olgan audio tasma va axborot materiallarini tushuna olish; muhokamada implitsit, ya’ni yashirin berilgan ma’no va mazmunni aniqlay olish va tushunish.

Gapirish: 1) **Dialog:** ilmiy va sohaga oid konferensiya, davra suhbatlari, munozara (jonli yoki vositali) larda muloqotni boshlash, olib borish va yakunlay bilish; fikrlarni aniq ifodalagan holda muhokamalarda faol qatnasha olish; vaziyatga mos tarzda tilni moslashtira olish; o‘z rasmiy nuqtai nazarini ishonch bilan ilgari surgan holda qarshi tomonning bir qator murakkab savol va sharhlariga mos ravishda ravon va spontan tarzda javob bera olish; seminar va muhokamalarda so‘rash, oydinlik kiritish, nutqni bo‘lish va to‘ldirish strategiyalarini mos ravishda qo‘llay olish. 2) **Monolog:** sohaga oid mavzular bo‘yicha prezentatsiya va ma’ruzalar qila olish; ob‘ekt, sub‘ekt, vaziyat va hodisalarni batafsil tasvirlay olish; ma’ruza, muhokama yoki maqolaga to‘g‘ri va ravon tarzda xulosa qila olish; ilmiy nuqtai nazar yoki fikrni rivojlantirish, dalillar keltirish orqali asoslay olish.

O‘qish: mutaxassislikka oid yoki oid bo‘limgan murakkab matnlardagi uslubiy jihatlar bayon etilgan yashirin fikrlarni tushuna olish; kichik detallarning muhim jihatlarini ham aniqlay olish; mutaxassislikka oid vebsayt yoki jurnallardan tegishli tafsilotlarni ola bilish.

Yozuv: barcha turdagи xatlarni, insholarni yoza bilish; tanlagan mavzulari bo‘yicha magistrlik ilmiy ishini yoza olish; sohaga oid maqolalar yoza bilish; sohaga oid va oid bo‘limgan adabiyotlar (maqolalar, kitoblar, malakaviy ish) tahlillarini yoza olish; sohaga oid va oid bo‘limgan adabiyotlar (birlamchi va ikkilamchi manbalar)ga annotatsiyalar yoza olish; turli ilmiy materialarga xulosa yoza olish; tezis va konferensiyada qatnashish uchun taklif va mushohadalarini yoza olish; grant va stipendiyalar uchun taklif va arizalar yoza olish.

Lisoniy kompetensiya

Leksik kompetensiya: mavzularga umumiste’mol leksikani va sohaviy terminlarni nutqda qo‘llash; mavzularga oid leksikani va sohaga oid atamalarni ilmiy darajada rivojlantira olish; so‘z yasash modellari asosida so‘zlar hosil qila olish.

Grammatik kompetensiya: ixtisoslikka (masalan, pedagogika, metodika yoki tilshunoslikka) oid matnlarda grammatik strukturalarni qo‘llash; ixtisoslashgan matnlardagi (masalan, tilshunoslik yoki tarjimaga oid) grammatik strukturalarni qo‘llay bilish; artikl va predloglarnini ilmiy uslubda to‘g‘ri qo‘llay bilishi.

Diskursiv kompetensiya: og‘zaki va yozma diskursning asosiy turlari (ilmiy, publisistik, badiiy, gazeta, xat, hujjat) va ularning xususiyatlari, matn yaxlitligi va

bog'liqligini yaratuvchi lisoniy vositalarni va ularni qo'llashni bilishi; og'zaki va yozma diskurs yaratishda va tushunishda lingvistik va ekstralengvistik omillarni bilishi va ularni inobatga olishi; turli matnlarning lingvistik va diskursiv tahlilini qila olish.

3. Amaliyotlarga qo'yiladigan talablar.

Ilmiy-pedagogik amaliyot – umumkasbiy va ixtisoslik fanlaridan nazariy bilimlarni mustahkamlash va amaliy (ishlab chiqarish) jarayonlari bilan uyg'unlashtirish, tegishli amaliy ko'nikmalar, kompetensiyalar va malakalarni shakllantirishga qaratiladi.

Magistratura mutaxassisligi bo'yicha *ilmiy amaliyot* o'tkaziladi.

4. Fanlar katalogining tuzilishi

T.p.	Fanning malakaviy kodi	O'quv fanlari, bloklar va faoliyat turlarining nomlari	Umumiy yuklanamaning hajmi, soatlarda	Kredit miqdori	Fan o'tiladiga n semestr
1.00		Majburiy fanlar*			
1.01	ITM1104	Ilmiy tadqiqot metodologiyasi	120	4	1
1.02	MFO'M1304	Maxsus fanlarni o'qitish metodikasi	120	4	3
Lingvistika (roman-german tillari) mutaxassisligi bo'yicha majburiy fanlar					
1.03	KLING1206	Kognitiv lingvistika	180	6	2
1.04	MLING1106	Matn lingvistikasi	180	6	1
1.05	IFYCHT11-208	Ilmiy faoliyatga yo'naltirilgan chet tili 1,2	240	8	1-2
1.06	ZLING12-308	Zamonaviy lingvistika 1,2	240	8	2-3
2.00		Tanlov fanlari	720	24	1-3
2.00		<i>Tanlov fanlari</i>	720	24	1-3
Kvalifikatsiya tilshunos, pedagog -tadqiqotchi (roman-german tillari bo'yicha)					
Lingvistika (sharq tillari) mutaxassisligi bo'yicha majburiy fanlar					
1.03	MNM11-206	Mutaxassislikning nazariy masalalari	180	6	1-2
1.04	TLM1104	Tadqiqot loyihalari menejmenti	120	4	1
1.05	TZY1206	Tilshunoslikning zamonaviy yo'nalishlari	180	6	2
1.06	O'MTV1204	O'rganilayotgan mamlakat(mintaqa)da til vaziyati va siyosati	120	4	2
1.07	O'TT1204	O'rganilayotgan til tarixi	120	4	2
1.08	MAT1204	Mutaxassislikka oid maxsus adabiyot tahlili	120	4	2
2.00		Tanlov fanlari	720	24	1-3
2.00		<i>Tanlov fanlari</i>	720	24	1-3
Kvalifikatsiya tilshunos, pedagog -tadqiqotchi (sharq tillari bilan)					
Lingvistika (qoraqalpoq tili) mutaxassisligi bo'yicha majburiy fanlar					
1.03	PL1206	Pragmalingvistika	180	6	2
1.04	LK1106	Lingvokulturologiya	180	6	1
1.05	NTM11-208	Nazariy tilshunoslik masalalari	240	8	1-2
1.06	LT12-308	Lingvistik ta'limotlar tarixi	240	8	2-3
2.00		Tanlov fanlari	720	24	1-3
2.00		<i>Tanlov fanlari</i>	720	24	1-3
Kvalifikatsiya tilshunos, pedagog -tadqiqotchi (qoraqalpoq tili bo'yicha)					

Lingvistika (qozoq tili) mutaxassisligi bo'yicha majburiy fanlar					
1.03	EL1206	Etnolingvistika	180	6	2
1.04	LM1106	Lingvomadaniyatshunoslik	180	6	1
1.05	NTM11-208	Nazariy tilshunoslik masalalari	240	8	1-2
1.06	LT12-308	Lingvistik ta'limotlar tarixi	240	8	2-3
2.00		Tanlov fanlari	720	24	1-3
2.00		<i>Tanlov fanlari</i>	720	24	1-3
Kvalifikatsiya	tilshunos, pedagog -tadqiqotchi (qozoq tili bo'yicha)				
Lingvistika (turkman tili) mutaxassisligi bo'yicha majburiy fanlar					
1.03	MTL1206	Matn lingvistikasi	180	6	2
1.04	LKUL1106	Lingvokulturologiya	180	6	1
1.05	NTM11-208	Nazariy tilshunoslik masalalari	240	8	1-2
1.06	LT12-308	Lingvistik ta'limotlar tarixi	240	8	2-3
2.00		Tanlov fanlari	720	24	1-3
2.00		<i>Tanlov fanlari</i>	720	24	1-3
Kvalifikatsiya	tilshunos, pedagog -tadqiqotchi (turkman tili bo'yicha)				
Lingvistika (tojik tili) mutaxassisligi bo'yicha majburiy fanlar					
1.03	NTM1105	Nazariy tilshunoslik masalalari	120	4	1
1.04	PS1106	Psixolingvistika	120	4	1
1.05	PR1106	Pragmalingvistika	120	4	2
1.06	L1205	Lingvokulturologiya	120	4	2
1.07	MT1205	Matn tilshunosligi	120	4	2
1.08	HTATM1205	Hozirgi tojik adabiy tili muammolari	120	4	1
1.09	OAVTVUM1205	Ommaviy axborot vositalari tili va uslubining muammolari	120	4	2
2.00		Tanlov fanlari	720	24	1-3
2.00		<i>Tanlov fanlari</i>	720	24	1-3
Kvalifikatsiya	tilshunos, pedagog -tadqiqotchi (turkman tili bo'yicha)				
Lingvistika (rus tili) mutaxassisligi bo'yicha majburiy fanlar					
1.03	LTA1108	Lingvistik tadqiqotlari asoslari	240	8	1
1.04	ZRLLM1108	Zamonaviy rus leksikologiya va leksikografiya muamollari	240	8	1
1.05	URV1206	Umumiy va rus variologiyasi	180	6	2
1.06	ML1206	Matn lingvistikasi	180	6	2
2.00		Tanlov fanlar	720	24	1-3
2.00		<i>Tanlov fanlar</i>	720	24	1-3
Kvalifikatsiya	tilshunos, pedagog -tadqiqotchi (rus tili bo'yicha)				
Lingvistika (o'zbek tili) mutaxassisligi bo'yicha majburiy fanlar					
1.03	PSL1105	Psixolingvistika	150	5	1
1.04	PRL1106	Pragmalingvistika	180	6	1
1.05	LK1106	Lingvokulturologiya	180	6	1
1.06	NT1205	Nazariy tilshunoslik	150	5	2
1.07	MT1206	Matn tilshunosligi	180	6	2
2.00		Tanlov fanlar	720	24	2-3
2.00		<i>Tanlov fanlar</i>	720	24	2-3
Kvalifikatsiya	tilshunos, pedagog-tadqiqotchi (o'zbek tili bo'yicha)				
		Jami	1800		
3.00		Ilmiy faoliyat	1800	60	1-4
		Jami	3600	120	

*Izoh: Fanlar katalogida ko'rsatilgan semestrlarga oliy ta'lim muassasasi o'quv jarayonidan kelib chiqib o'zgartirishlar kiritilishi mumkin.

Bibliografik ma'lumotlar

UDK: 002:651.1/7

Guruh T 55

OKS 01.040.01

Tayanch so'zlar:

kasbiy faoliyat turi, kompetensiya, magistratura mutaxassisligi, kasbiy faoliyat ob'ekti, kasbiy faoliyat sohasi, magistraturaning o'quv reja va o'quv dasturi, nutqiy kompetensiya, grammatik, leksik va diskursiv kompetensiya, tarjima va tahrir, konsalting xizmati, ta'lim texnologiyalari, malaka oshirish va qayta tayyorlash, ta'lim sohasi, mustaqil ta'lim, davlat attestatsiyasi, pedagogik jamoa, lingvistik, ijtimoiy-lingvistik, ijtimoiy-madaniy, o'quv-kognitiv kompetensiyalar, lisoniy vosita, xorijiy tilni o'qitish, ekstralengvistik omil, grammatik struktura, sohaviy termin.

Ishlab chiquvchilar, kelishilgan asosiy turdosh oliy ta'lim muassasalari hamda kadrlar
iste'molchilari

ISHLAB CHIQILGAN:

O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti

Rektor _____ I.Tuxtasinov
202 _____



Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti

Rektor _____ G.Rixsiyeva
202 _____



M.O'.

KELISHILDI:

O'zbekiston Respublikasi
Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi
huzuridagi Oliy ta'limni rivojlantirish
tadqiqotlari markazi

Direktor _____ M.Boltabayev

202 yil " " "



Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi
huzuridagi Respublika ta'lim markazi

Direktor _____

Sh.Xudaykulov

202 yil " " "

M.O'.

M.O'.

"O'zbekistonda xorijiy tillar"
elektron ilmiy metodik jurnali va Internet portali

Bosh muhabiri _____ G.Shukurova

202

M.O'.

